

BOLALARING ICHKI QOBILIYATLARINI
ANIQLASHDA MONTESSORI O'QITISH USULINING AVZALLIGI

Qodirova Lobar Shovkat qizi

Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti

Maktabgacha ta'lif mutaxassisligi 2-bosqich magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7928016>

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalarning ichki qobilyatlari va imkoniyatlarini aniqlashda Montessori o'qitish usulidan foydalanish afzalliklari va ular haqida takliflar, ushbu metodni Respublikagi maktabgacha yoshdagi bolalarda qo'llash uslublari haqida fikrlar ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: Montessori o'qitish uslubi, Montessori, Maktabgacha ta'lif, yosh, maktabgacha yoshdagi bolalar, qobilyat, imkoniyat, usul, uslub, izchillik.

**ПРЕИМУЩЕСТВА МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ МОНТЕССОРИ В
ВЫЯВЛЕНИИ ВНУТРЕННИХ СТРЕМЛЕНИЙ И СПОСОБНОСТЕЙ ДЕТЕЙ**

Аннотация. В данной статье "концептуальные основы развития системы дошкольного образования" и предложения по ним также освещаются показатели охвата детей дошкольного возраста дошкольными образовательными учреждениями Республики.

Ключевые слова: образование, система, возраст, дети, реконструкция, модернизация, образовательные учреждения, реформы, согласованность.

**THE ADVANTAGE OF THE MONTESSORI TEACHING METHOD
IN IDENTIFYING CHILDREN'S INNER ASPIRATIONS AND ABILITIES**

Abstract. This article also covers the indicators of the coverage of preschool children in preschool institutions in the Republic of "the conceptual basis for the development of preschool education system" and their proposals.

Keywords: School, education, system, age, children, reconstruction, modernization, educational institutions, reforms, consistent.

Ta'larning insonparvarlashuvi va inson qobilyatlarining ochilishi hamda uning ta'limga nisbatan bo'lgan turli tuman ehtiyojlarini qondirilishi, milliy umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi, inson jamiyat va atrof-muhit o'zaro munosabatlarining uyg'unlashuvidir. Shu bois bugungi kunda maktabgacha ta'lif sohasini rivojlantirish maqsadida bir qancha ilg'or usullar tadbiq etib kelinmoqda. Shunday ishlardan yana biri Montessori ta'lif texnalogiyasidir. Bu mohiyatan hayotdan o'zlashtirilgan "tabiiy" usul bo'lib, bola ta'limgarbiyasida har tomonlama mukammalligi bilan ommalashgan. Montessori ta'luming asoschisi Italiyalik shifokor hamda pedagog Maria Montessori bo'lib, u dastlab kambag'al bolalar uchun "Casa dei Bambini" nomli bolalar ta'limgarbiya muasassasini tashkil etdi. Shundan so'ng Montessori ta'lif tizimi butun dunyoga mashhur bo'ldi. Montessori ta'lif dasturining o'ziga xosligi shundaki, bola uchun maxsus tayyorlangan o'qitish muhitida bolaning mustaqil faoliyatini tashkil etish hamda amalga oshirish, bolaning sezgi organlarini mukammal darajada rivojlantirish orqali bolalar ta'limgarbiya jarayoni samaradorligini oshirishdir. Montessori o'qitish uslubi bolaga o'zi o'rganishni istagan narsani tanlashga imkon berish bilan boshlanadi. Montessori ta'lifi o'z-o'ziga yo'ntirilgan va bu bolalar o'quv jarayonida tajribaga ega bo'lishga undaydi. Montessori ta'luming asosiy vazifalari bolalarning yashiringan imkoniyatlarini oshkor etish, ijtimoiy intelektual, hissiy va amaliy hamda akademik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Shuningdek, ushbu dasturda bolalarning o'zidagi mag'rurlik hamda hurmat hissi ularni bilimni sevishga undovchi muhim omil sifatida yoritilgan. Bundan tashqari bolalarning kichik-kichik yutuqlari ham ularni rag'batlantirishda katta ahamiyatga ega ekanligiga alohida urg'u berilgan. Montessori ta'limi haqida gapirar ekanmiz, yaqinda bu ta'limga oid quyidagi fakt dunyo miqiyosida juda ommalashdi.

“Google kompaniyasi asoschilari Sergey Brin va Larry Page, Microsoft kompaniyasi asoschisi Bill Geyts, Apple kompaniyasi asoschisi Stiv Jobs, Amazon kompaniyasi asoschisi Jeff Bezon, Wikipediya yaratuvchisi Jimmi Ueily, YAHOO CEO Marissa Mayer , Amerikaning avvalgi prezidentlari Bill Clinton va Barack Obama kabi dunyoga mashhur shaxslar o'zlaridagi “Empatik qobilyat” va “Yaratuvchanlik qobilyat”i Montessori bolalar bog'chasidan boshlanganligi haqida aytildilar! ”

Yuqorida keltirib o'tilganlarga asoslanib, Montessori ta'limining qay darajada ustuvor ekanligini bilish mumkin. M.Montessori o'zining pedagogik tizimini didaktik jihatdan tayyorlangan muhitda bolaning o'zini o'zi rivojlantirish tizimi deb atagan. Kattalar bilan yaqin joyda o'tadigan bolaning hayot yo'lini o'rganish, uning ta'lim usullari va tamoyillariga aralashish emas, balki u pedagogi kantropologiyaning asosini o'rganish edi. M. Montessori har qanday amaliy harakatlar, nazariyalar va modellar faqat rivojlanayotgan shaxs haqidagi fundamental bilimlarga asoslanishi mumkin deb hisoblardi. Bolalarning holati va xulq-atvorini ilmiy kuzatishlar unga "Diqqatning qutblanish hodisasi" ni aniqlashga yordam berdi, shundan u bolaning erkin o'zini-o'zi rivojlantirishi va uning ishini maxsus mакtabda tashkil etish usullari to'g'risida xulosa chiqaradi. Tayyorlangan muhit. Mariya Montessorining muhim asarlaridan biri "Bolalar boshqacha" deb nomlangan. Kitobning sarlavhasida allaqachon uning bola hayoti tasviriga fundamental nuqtai nazari ko'rindi. Bu bolaning ruhiyati va mohiyati kattalarnikiga qaraganda boshqacha tartibga solinganligidadir. Agar kattalar sodir bo'layotgan voqealarni tahlil qilish va sintez qilish orqali bilimga ega bo'lsalar, bola shunchaki hayotni butun sifatida qabul qiladi. Bola vaqtin kattalarnikidan farq qiladi. Uning hayotining tabiiy ritmi ancha sekinoq. U ma'lum bir daqiqada u bilan nima sodir bo'layotganiga qarab yashaydi, kattalar esa doimo o'z hayotlarini rejalshtirishadi, eng zarur va zarur narsalarni ta'kidlaydilar. Yosh bolalar birinchi navbatda o'z harakatlari orqali o'rganadilar.

Maktabgacha yoshdagagi bolalarni qobilyatlarini aniqlash va rivojlantirishda ularning ichki intilishlari muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan bolalarning ichki imkoniyatlari va yashiringan qobilyatlarini yuzaga chiqarishda Montessori ta'limidan foydalanish samaraliroq ekanligini inobatga olib, quyidagi usullardan foydalanishni lozim deb bildik:

- Bola o'z ichki imkoniyatlari namoyon etishi va qobilyatlarini yuzaga chiqarishi uchun maxsus o'qitish muhitini yaratish.

Bolalarning imkoniyatlari va qobilyatlari eng avvalo ularning faoliyatlarida namoyon bo'lishini inobatga olib, maxsus o'quv muhiti orqali ularning faoliyat doirasini kengaytirish lozim. Maxsus o'quv muhiti bolalarni kuzatish jarayonini osonlashtiradi. Shu bois bolalarning qobilyatlarini erta aniqlashda muhim tayanch hisoblanadi.

- Mukammal kuzatuvchanlik orqali bolaning ilk qobilyat kurtaklarini ko'ra bilish.

Yuqorida urg'u berilgan muhitni tayyorlab berish va bu muhitda bolaning faoliyatini sinchkovlik bilan diqqat markaziga olish bolaga mas'ul shaxs, ota-onasi, tarbiyachi, ustoz zimmasida bo'ladi. Shu bois ushbu shaxs mukammal kuzatuvchanlik mahoratiga ega bo'lishi

lozim. Hamda ushbu shaxs bolaning intilishiga asoslanib, o'quv muhitini rivojlantirish va mukammallashtirib borishi kerak.

- Bolaning sezgi organlarini rivojlantirish.

Bola sezgi organlarining rivojlanishi uning atrof-muhitga yanada moslashuviga imkon beradi. Bolada ko'rish, eshitish, hid bilish, ma'za bilish, tuyg'u organlarining qay darajada rivojlanishi uning imkoniyat va qobilyatlarini ochib berishda yetakchi unsurlardan biri hisoblanadi. Montessori sezgi organlarini rivojlantirish o'quv qo'llanmalari har bir sezgi organini rivojlantirish uchun maxsus ishlab chiqilgan bo'lib, bola sezgi organlarini rivojlantirishda ushbu o'quv qo'llanmalaridan foydalanish samarali yo'l bo'lib xizmat qiladi.

- Bola so'zlaganda uni har bir so'zini diqqat bilan tinglash.

Bola gapirganda uning gaplarini oxirigacha tinglash lozim. Shunda u o'zining suhbati, gaplari atrofdagilar uchun ahamiyatlari va qiziqarli ekanligini his etadi. Shuningdek, bu jarayonda bola o'zining ham atrofdagilar uchun qay darajada qadr-qimmatga ega ekanligini anglaydi. Bunday jarayonning davomiyligi esa bolaning atrofdagi narsalarga, borliqqa yanada ko'proq qiziqish bildirishiga sabab bo'lib, bolani faollikka undaydi va ichki imkoniyatlarini ochib berishda turtki bo'ladi.

- Ma'lum bir sohada bolaning qiziqishi uyg'ondimi, aynan o'sha sohada, aynan o'sha vaqtning o'zida shu sohani o'rganish uchun bolaga shart-sharoit, imkoniyat yaratib berish.

Bola 6-7 yoshda maktabga borishi, uni shu yoshda o'qishni yoki yozishni o'rganishi kerak degani emas. Bola necha yosh bo'lishidan qat'iy nazar qiziqish bildirgan vaqtning o'zida shu sohada faoliyat olib borishi uchun yetarlicha imkoniyat yaratish lozim. Bolaning o'z xohishi bilan o'rganishga, bilishga intilishi uning ichki imkoniyatlarini ochib berib, davomiy rivojlanib borishiga sabab bo'ladi.

- Bolaga kichik xatolardan ham saboq chiqarishga o'rgatish.

- Bola o'z faoliyatida omadsizlikga uchraganda yoki kutilgan natijaga erisha olmaganda bolaning yaqinlari ushbu faoliyatni qaytadan boshlash uchun bolada ishtiyoq uyg'otishi, bolaga o'rnak, namuna bo'lishi.

Bola turli vaziyatlarda tushkunlikga tushganda uning yaqinlari, ota-onasi, tarbiyachisi bolaga tushuntirish ishlarini olib borishi, o'g'it-nasihatlar qilishi tabiiy hol. Ammo bunday yo'l har doim ham samarali bo'lavermaydi. Bunday vaziyatda kattalar bolaga yaqqol namuna bo'lishi samarali usullardan biri hisoblanadi. Misol tariqasida shuni keltirish mumkin, deylik, ona taom tayyorlayapti, bola esa uning atrofida onani kuzatyapti, ammo, onaning tayyorlagan taomi kutilgandek chiqmadi. Bunday vaqtda ona taom tayyorlashni to'xtatib qo'yishi bolaga salbiy ta'sir etib, bola ham kelgusida qiyin vaziyatga tushganda, bu jarayonni shunchaki to'xtatib qo'yishi mumkin. Aksincha, yuqoridagi vaziyatda ona o'xshata olmagan taomni qaytadan tayyorlab kutilgan natijaga erishishi esa, bolaning ham har bir qiyin vaziyatda shunday yo'l tutishiga sabab bo'ladi. Bu jarayon orqali bolalar turli to'siqlarni yengib o'tishni o'rganadilar. Bu ham o'z navbatida bola o'z ustida ishlashiga va tabiiy holda o'z imkoniyatlarini ochishiga turtki bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, bolaning ichki imkoniyati va qobilyatlarini aniqlashda turli usullarni qo'llash, mutaffakkirlarimiz va chet el pedagoglarining asarlarini hayotga tadbiq etish katta samara beradi. Hamda bolalarning o'ziga xos xususiyatlariga asoslanib, ularga turli xil usullarda samarali ta'lim-tarbiya berish bugungi kun talabi hisoblanadi

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori, 2019., 13 may, PQ 4312 son.
2. O‘zbekiston Respublikasini Presidentining Qarori PQ-3261 — “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 09.09.2017.
3. UNESCO, Montoya S. Defining literacy. GAML fifth meeting, Germany, 2018.
4. I Je Song “Eight” Janubiy Koreya “Thinking Garden” nashriyoti 2019-yil.
5. Yu Yong So “마리아 몬테소리 어린의 교육 어머니”(Maria Montessori bolalar ta’limining onasi) Janubiy Koreya “ Hangug Academic”nashriyoti 2003-yil.
6. Fausyek Yu U. Montessori bolalar bog’chasi. T; “Yangi asr avlodi” 2007y
7. Lee Youngil. Montessori ta’limi. Qo’llanma. Qarshi. “Intelekt “ nashriyoti, 2022-326 b.
8. Орипова Н. Х., Келдиярова В. Б. Формирование образного мышления учеников начальных классов через интеграционное обучение //Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов. – 2018. – №. 7. – С. 43-45.
9. Khalilovna O. N. et al. Main core and meaning of shaping professional faith //Journal of Critical Reviews. – 2020. – Т. 7. – №. 2. – С. 242-245.

INTERNET SAYTLARI

10. www.uz.m.wikipediya.org
11. www.daum.net
12. www.ZiyoNet.Uz